

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OCHILOVA DILOBAR JURAQULOVNA

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING
RIVOJLANISHIDA IJODIY ZIYOLILARNING O‘RNI
(1985-2021-yy)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ochilova Dilobar Juraqulovna

O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o‘rni (1985-2021-yu) 5

Очилова Дилобар Джуракуловна

Роль творческой интеллигенции в развитии социально-гуманитарных наук в Узбекистане (1985-2021 гг.)..... 23

Ochilova Dilobar Jurakulovna

The role of creative intellectuals in the development of social-humanitarian sciences in Uzbekistan (1985-2021)..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OCHILOVA DILOBAR JURAQULOVNA

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING
RIVOJLANISHIDA IJODIY ZIYOLILARNING O‘RNI
(1985-2021-yy)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4. PhD/Tar1684 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshov Boxodir Jo'rayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ergasheva Yulduz Alimovna
tarix fanlari doktori, professor

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" kuni tarqatildi
(2024-yil "_____" dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.E. Muminova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, t.f.d., professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, t.f.n.,
dotsent

Yu.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muloqotlarning yanada kuchayuvi natijasida ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ijodiy ziyolilarning xalqaro miqyosda sodir bo‘layotgan turli jarayonlardagi faol ishtiroki e‘tiborga molikdir. Bugungi kunda jahon taraqqiyoti, jumladan, xalqaro maydonda turli manfaatlar to‘qnashuvi kuchayib borayotgani, jahon siyosati va iqtisodiyotida muammolar keskinlashayotgani, dunyoning umumiy manzarasini o‘zgartirish tarafdorlari tobora ortib borayotgani hozirgi global dunyo taraqqiyotiga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, ijodiy ziyolilar dunyoning turli davlatlaridagi turli millatlarning ma‘naviy dunyosini o‘rganuvchi hamda tadqiq etuvchilari bo‘lib, ular millat ma‘naviyatini jahonga namoyish etuvchi jamiyat toifasi hisoblanadi. Bu borada BMTning ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti YUNESKO va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida imzolangan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi dastlabki memorandum ham muhim o‘rin tutadi.

Dunyodagi ko‘plab yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari hamda Oliy ta‘lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi ijodiy ziyolilar faoliyati va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalasini tadqiq etish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, transformatsiya jarayonlari, etnomadaniy aloqalar, migratsiya jarayonlari kabi muammolarga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan ziyolilar qatlamining rivojlangan va rivojlanayotgan jamiyatdagi o‘rni hamda mavqeiga baho berish dolzarb ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda madaniyat va san‘at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e‘tibor berilib, ushbu soha ravnaqini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha ulkan ishlar qilinmoqda. Bu borada boy madaniy merosni qayta tiklash, tarixiy jarayonlarda adabiyot va san‘at vakillarining rolini ochib berish muhim sanaladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham albatta bo‘ladi”¹, deya ta‘kidlab o‘tgan. Bu borada mustaqillik arafasi va undan keyingi yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o‘rnini ko‘rsatib berish, ularning faoliyatini tahlil qilish va ulardan tegishli xulosalar chiqarish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF–6000-son “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi

¹Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

PF–158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilish darajasi. 1985–2021-yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o‘rni mavzusiga oid turli adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil etilib, o‘rganilayotgan davrning xususiyatlari ochib berilgan bo‘lsada, biroq bu tadqiqotlar umumiy xarakterga ega. Ular kompleks tarzda hududlar kesimida to‘laqonli tahlil etilmagan. Shunga qaramasdan, mavzuga taalluqli ilmiy tadqiqot ishlari va adabiyotlarni tarixshunoslik yuzasidan uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh O‘zbekistonning sovet davridagi ijodiy ziyolilar faoliyatida ijtimoiy-gumanitar fanlarning kommunistik mafkuraviy muhitda rivojlanib borishiga oid tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida ushbu guruhlarga oid adabiyotlar va tadqiqotlar ma’lum darajada bir-biridan nazariy-g‘oyaviy va uslubiy jihatdan farq qiladi. Ikkinchi guruh adabiyotlariga mustaqillik davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar va uchinchi guruh adabiyotlariga xorijdagi izlanishlar natijalarini kiritish mumkin.

Birinchi guruh adabiyoti vakillaridan K. Bo‘ronov, M. Xolmuhamedov, H. Po‘latov, S. Gitlin, K. Oqilov, S. Shermuhamedov, V. Ten, A.K. Valiyev, A. Hamrayev, D. Mamatov, N. Mamatov kabi tadqiqotchilarning ishlarini ko‘rish mumkin². Ularning asarlarida KPSSning madaniyat siyosatidagi monopoliyasi “asoslab berilgan”³. Lekin ushbu guruhga kiritilgan ishlar haqida shuni ta’kidlash lozimki, sinfiy-siyosiy va mafkuraviy bosimlar hukmron bo‘lgan davrda mualliflar, xususan, tarixchilar, iqtisodchilar, faylasuflar o‘rganilayotgan masalalarni xolisona

² Пулатов Х. Коммунизм, государство, культура, личность. – Ташкент, 1971; Халмухамедов М. Дружба народов – могучий ускоритель общественного прогресса. – М., 1972; Акилов К. Ленин и культурная революция в Узбекистане. – Ташкент, 1972; Буранов К. Диалектика развития социалистической культуры. – Ташкент, 1974; Шермухамедов С. Некоторые вопросы теории и практики развития социалистической культуры. – Ташкент, 1980; Тен В. Руководство КПСС процессами сближения нации в условиях развитого социализма. – Ташкент, 1981; Гитлин С. Национальная политика КПСС в условиях развитого социализма. – Ташкент, 1983 ва бошқалар.

³ Валиев А.К. Советская национальная интеллигенция и её социальная роль. – Ташкент. Фан, 1969; Валиев А.К. Октябрь, культура, интеллигенция. – Ташкент: Узбекистан, 1977; Ҳамраев А. Возрастания социально-экономической роли сельскохозяйственной интеллигенции в период развитого социализма (по материалам Узбекской ССР). Дисс... кан. филос. наук. – Ташкент, 1973; Маматов Д. Сельская интеллигенция и возрастание её роли в коммунистическом воспитании трудящихся. Автореф... дис. кан. филос. наук. – Ташкент, 1982; Маматов Н. Сельская производственно-техническая интеллигенция в условиях научно-технической революции (на материалах Узбекской ССР). Дисс...кан. филос. наук. – Ташкент, 1975; Суёнов С. Инженерно-техническая интеллигенция и возрастание её роли в условиях развитого социализма (на материале Узбекской ССР). Автореф.дисс...кан. наук. – Ташкент. 1975; Интеллигенция Узбекистана: место и роль в обществе. Ред.кол. Ханазаров К.Х. и др. – Ташкент: Фан, 1987; Насиров У. Культурно-просветительная интеллигенция и возрастания её роли в условиях социализма (на материале Узбекской ССР). Автореф. дисс. кан. наук. – Ташкент, 1988.

tahlil qilish va ularni tanqidiy yoritish imkonidan mahrum edilar. Bunday nashrlar sarasiga S. Shermuhamedov, R. Abdullayeva, A. Agzamxo‘jayev kabi olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin⁴.

1980-yillar o‘rtalarida boshlangan “qayta qurish” davrida fikrlar xilma-xilligiga imkoniyat yaratildi. “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali sahifalaridagi maqolalarda⁵ oktabr to‘ntarishidan keyin o‘lkadagi “fuqarolar urushi”, siyosiy va madaniy sohalar davr adabiyotlari, xorij adabiyotlari hamda 60–70-yillarda nashr etilgan asarlar tahlili orqali yangi fikrlar taqdim etila boshlandi.

Ikkinchi guruhga mansub adabiyotlarga mustaqillik davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar, ya’ni mustaqillik yillarida qayta qurish davrida ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarining tarixini o‘rganishga bag‘ishlab yaratilgan monografiya va qator dissertatsiyalarni kiritish mumkin. Jumladan, G. Nadjimov, M. Nishanov, B. Xasanov, Yu. Ergasheva va boshqalarning asarlarini, shuningdek, A. Mavrulov, D. Habibullayeva, J. Aytmurodov, Q. Ergashev, V. Rajapov, X. Yunusova, M. Alixanov, Z. Yusupov, N. Mustafoyeva, D. Vasiyeva, O‘. Abdullayev, G. Mo‘minova va B. Boqiyevlarning dissertatsiyalarini u yoki bu jihatdan (xronologik nuqtai nazarini hisobga olmasa) biz tadqiq etayotgan mavzuga yaqin deb hisoblaymiz⁶. Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar soha vakillari kundalik hayotining xususiyatlarini anglashga urinishlarni o‘z ichiga olgan tadqiqotlar D. Alimova, A. Golovanov, H. Ziyoyev, N. Jo‘rayev, A. Azizxo‘jayev, N.A. Xrenova,

⁴ Шермухамедов С. Русский язык – великое и могучее средство общения советского народа. – М.: Просвещение, 1980. – 239 с.; Ўша муаллиф. Некоторые вопросы теории и практики развития социалистической культуры. – Ташкент: Узбекистан, 1980. – 271 с.; Абдуллаева Р.Х. Руководство КПСС в период зрелого социализма (на материалах парторганизаций Узбекской ССР). – Ташкент: Узбекистан, 1982. – 295 с.; Агзамходжаев А. Воплощение социалистического интернационализма в многонациональном государстве. – Ташкент: Фан, 1984. – 218 с. ва б.

⁵ Рабич Р.Г. Великий октябрь и изменение социальной структуры крестьянства Узбекистана // ОНУ. 1987. – №1. – С. 130-137; Кошанов Б.А. Об изучении и издании листовок периода октябрьской революции и гражданской войны в Туркестане // ОНУ. 1987. – №11. – С. 52-55; Садыкова Н.С. Реликвии периода гражданской революции и гражданской войны в музее истории народов Узбекистана. // ОНУ. 1987. – №11. – С. 55-57; Кандалова К. Материалы о Туркестанской АССР в собрании музея истории народов Узбекистана // ОНУ. 1988. – №4. – С. 49-51; Лебедова С.В. Первая советская конституция народов Средней Азии // ОНУ. 1988. – №10. – С. 24-31.

⁶ Наджимов Г. Народные традиции и культура. – Ташкент, 1992; Нишанов М. Обновление духовной жизни нации. – Ташкент, 1992; Маврулов А. Замоनावий боскичда Ўзбекистон маданияти: умумий ҳолати. Муаммолар, тараққиёт тамойиллари (70-йиллар ўрталари – 1990 йиллар): тарих фанлари докт. дисс. Автореф. – Тошкент, 1993; Хабибуллаева Д. Возрождение национальных и общечеловеческих ценностей в Узбекистане (1985-1991 гг): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995; Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане 70-90 гг: проблемы и тенденции: Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 1996; Айтмуратов Ж. Культура Каракалпакстана в 70-90 годы: общее состояние и тенденции развития. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Нукус, 1997; Эргашева Ю. Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развития (50–60-е годы). Автореф. дисс... докт. ист. наук. – Ташкент, 1998; Мустафаева Н. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшунослигида: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999; Хасанов Б. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917 г. – начала 50-годов. Дисс... докт. истор. наук. – Ташкент, 2000; Ражапов В. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда маданият соҳасидаги ўзгаришлар ва муаммолар: тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006; Алиханов М. Ўзбекистон ижодий зиёлиларининг мустақилликни қўлга киритиш ва уни мустаҳкамлаш давридаги фаолияти (1985-2000 йиллар): тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007; Юнусова Х. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века. Автореф. дисс... докт. ист. наук. – Ташкент, 2009; Юсупов З. Ўзбекистон маданиятида миллийлик ва байналмилаллик (1970-2000 йиллар): тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011; Васиёва Д.И. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда университет таълимининг шаклланиши ва ривожланиши: тажриба ва муаммолар (1991-2001 йй.). Тарих фан. номз... дисс. – Қарши, 2008; Абдуллаев Ў.Ш. Ўзбекистонда педагогик кадрлар тайёрлаш тизимидаги ютуқ ва муаммолар (1991-2018 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Қарши, 2021; Мўминова Г.Э. Ўзбекистонда совет даврида соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йй.). Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент, 2018; Боқиев Б. XX асрнинг иккинчи ярми – XXI аср бошларида Ўзбекистон ижодий зиёлиларининг маданий жараёнлардаги ўрни. Тарих фан. бўйича фалс. докт. (PhD) диссертацияси автореф. – Қарши, 2023.

V.S. Jidkova, K.B. Sokolova, G.A. Yankovskaya va shu kabi olimlarning adabiyotlarida aks etgan⁷.

Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarning uchinchi guruhini xorijiy tillarda yozilgan maqolalar, asarlar tashkil qiladi. Xususan, ushbu tadqiqot ishlar sobiq ittifoqdosh respublikalarning, shu jumladan, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tarixiga va ma’naviy hayotiga qaratilgan mavzularni qisman bo‘lsa-da qamrab olib, ularning mazmuni va xulosalari yetarli darajada og‘ir va qarama-qarshidir.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda 1980-yillarning ikkinchi yarmidagi madaniy hayotning ayrim masalalarigina chet el tarixshunosligida yoritib berilgan. Taniqli amerikalik olim V. Fiyerman o‘zining “Gorbachev davrida O‘zbekistonda islomga nisbatan siyosat” va “O‘zbekistondagi siyosiy rivojlanish: demokratizatsiyami?” nomli maqolalarida O‘zbekistondagi ijtimoiy va diniy siyosat muammosining tahlilidan avval, qayta qurish davrida SSSRdagi islohotlar jarayonini o‘rganib, madaniy masalalarga ham alohida e’tibor qaratgan⁸.

Shuningdek, yana bir amerikalik tadqiqotchi G. Glison o‘zining Markaziy Osiyodagi sobiq sovet respublikalarining mustaqillikka erishishi masalasiga bag‘ishlangan “Markaziy Osiyo davlatlari: mustaqillikning kashf qilinishi” kitobida 1980-yillarning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan birga O‘zbekistondagi madaniy, shu jumladan til muammolarini o‘rganishga ham e’tiborini qaratdi⁹.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universitetining “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1985–2021-yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o‘rnini xolisona tarzda yangicha tafakkur asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston ijtimoiy-gumanitar fanlarining taraqqiyot yo‘lini tadqiq etish;

⁷ Алимova Д.А, Голованов А.А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тазйик оқибатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 254 б., Ўша муаллифлар. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологий. – Ташкент, 2022. – 325 б., Азизхўжаев А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 230 б.; Жўраев Н. Агар оғох сен... – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 254 б.; Ўша муаллиф. Тафаккурдаги эврилиш. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 256 б.; Зиёев Х. Ўзбекистон мустақилликнинг курашлар тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 268 б.; Облонурадov Н. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971-1990 гг. Опыт, уроки и проблемы. Автореф. дисс.докт.ист.наук. – Ташкент, 1994; Алимov И., Ражабов Қ. Ўзбекистон мустақиллик йўлида (1985-1991 й.) // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 12. – Тошкент: ЎЗМЭ давлат нашриёти, 2006. – Б. 178-185; Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Тошкент: Университет, 2007; Бобобеков Х., Фарғона фожиаси кундалиги. 1989 йил. – Тошкент, 2012; Ражабов Қ., Иноятov С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016; Эргашев Ш. Эрк истар қўнгил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

⁸ William Fierman. Policy toward Islam in Uzbekistan in the Gorbachev era // Nationalities Papers, Vol. 22.1, 1994. – Pp. 225-246; Ўша муаллиф: Political development in Uzbekistan: democratization? // Conflict? Cleavage, and change in Central Asia and the Caucasus. Edited by K. Dawisha, B. Parrot. Cambridge University Press, 1997. – Pp. 360-408.

⁹ Gregory G. The Central Asian States: discovering independence. Westview Press. Boulder, USA. 1997. – 220 p. Michael Lenker. The Politics of Language Policy. A case study of Uzbekistan // Perestroika at the Crossroads. Edited by A.J. Rieber & A.Z. Rubinstein. M.E. Sharpe, Inc. Armonk, NY. USA. 1991. – Pp. 268-269.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida ijodiy ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarga bo'lgan munosabatini yoritish;

sovet davlatining "qayta qurish" siyosati sharoitida ziyolilarda o'zlikni anglash mafkurasining shakllanib borishini tahlil qilish;

mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlar: taraqqiyot tamoyillari, ilmiy muammolari, istiqboldagi vazifalarini o'rganish;

respublika ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish zaruriyati va ahamiyatini ochib berish;

ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishda Sharq mutafakkirlari ma'naviy merosining o'rni va ahamiyatini yoritish;

O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirishning ilmiy asoslarini tahlil qilish;

ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlarini tahlil qilish;

Uchinchi Renessans poydevori shakllanayotgan Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishdagi ehtiyojni o'rganish;

XX asrning 80-yillari va mustaqillik yillari doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1985–2021-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o'rni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini 1985–2021-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o'rni va ularning hayoti hamda faoliyatiga doir jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiyada xronologik, tizimli, qiyosiy, retrospektiv va statistik tahlillardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sovet davrida ham ijtimoiy fanlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, biroq barcha ijtimoiy fanlar marksizm-leninizm g'oyalariga, kommunistik mafkuraga bo'ysundirilganligi, O'zbekistonda esa ijodiy ziyolilar ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha kommunistik mafkuraning tazyiqlariga qaramasdan tarixiy mavzularda ijod qilib, kommunistik mafkura va milliylik o'rtasida yuzaga kelgan internatsional mafkura asosida sun'iy shakllantirilgan madaniyat tushunchasidan XX asrning 80-yillarida e'lon qilingan ochiqlik ruhidagi turkum maqola va asarlari voz kechishga olib kelganligi ochib berilgan;

Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi uchun ham "qayta qurish" siyosati ma'lum jihatdan uyg'onish va hurfikrlilikka turtki berib, 1980-yillargacha siyosiy jihatdan o'rganish mumkin bo'lmagan ayrim mavzularga (milliy-madaniy qadriyatlar va o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi mavzular) O'zbekistondan olib ketilgan tarixiy-madaniy yodgorliklarni respublikaga qaytarish, shuningdek, milliy-madaniy merosni tiklash, tarixiy-me'moriy yodgorliklarni himoya qilish va saqlash, xususan, "Meros" dasturiy rejasi amalga oshirish kabi keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yilishiga asos bo'lganligi asoslangan;

Mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolarini hal etishda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarining mutaxassisleri tomonidan xalq xo'jaligi paxta kompleksining xo'jalik mexanizmini qayta qurish mohiyati ishlab chiqilib, bozor munosabatlariga o'tish va iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashga

qaratilgan ilg'or xorijiy tajribalarni respublikamiz sharoitiga moslashtirgan holda qo'llash borasidagi tavsiyalarni hukumat organlariga taqdim etilishi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni boshqarish konsepsiyasi ishlab chiqilishida muhim o'rin tutganligi isbotlangan;

Mustaqillikka erishgandan keyin ijodiy ziyolilar qatlami milliy madaniyatni shakllantirish, undagi asosiy yo'nalishlar – til, yozuv islohoti, milliy tarix, o'zlikni anglash kabi masalalarni yoritishga xizmat qiluvchi ilmiy kitob va maqolalar, badiiy asarlarning e'lon qilinishi, ularda ko'tarilgan asosiy masalalar negizida tarixiy shaxslar va ularning yubileylari, tarixiy obidalarning asl funksiyaviy faoliyatining tiklanishi milliy o'zlikni anglash va tarixiy ongni yuksaltirishga qaratilgan tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lganligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga doir ko'plab manbalar va ilmiy asarlar xolisona tahlil qilinishi asosida yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

Bugungi kunda ijtimoiy fanlar globallashib borayotgan jamiyat tendensiyalarining shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladigan eng muhim subyektiv omil vazifasini o'tayotgan jihatlari aniqlangan;

O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning 1985–2021-yillar oralig'idagi tarixiga oid ko'plab arxiv hujjatlari va boshqa birlamchi ma'lumotlar ilk marta ilmiy muomalaga kiritilgan;

Sovet mustabid tuzumi sharoitida ilm fan, san'atning turli sohalari va madaniy merosimizni o'rganishda yangicha nuqtai nazar bilan yondoshuvga erishilganligi xolisona yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'yilgan masalalar 1985–2021-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o'rni bo'yicha O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, joriy arxivlar materiallaridan keng foydalanilgan holda, shuningdek mahalliy va xorijiy mualliflarning tarixshunoslik va manbashunoslik asarlarini jalb etib, tarix fanida e'tirof etilgan usul va yondashuvlarga asoslanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XX asrning 80-yillari 2-yarmida O'zbekiston ijodiy ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarni tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik usullar hamda obyektivlik tamoyili asosida tuzilmaviy-tizimli tahlil asosida yoritilganligi tufayli ulardan mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni mukammallashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston ziyolilarining ilm-fan va madaniy sohalardagi xizmatlarining O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'rganish bo'yicha maqsadli davlat dasturlarining amalga oshirilishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, teatr va muzeylarning ekskursovodlari uchun qo'shimcha material sifatida, hujjatli va badiiy filmlarni yaratishda, "O'zbekiston san'ati tarixi", "O'zbekiston tarixi", "Madaniyatshunoslik" fanlari bo'yicha maxsus kurslar, o'quv qo'llanmalari va darsliklarni tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1985–2021-yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o‘rnini tadqiq etish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar asosida:

Sovet davrida ham ijtimoiy fanlarni o‘qitishga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, biroq, barcha ijtimoiy fanlar marksizm-leninizm g‘oyalariga, kommunistik mafkuraga bo‘ysundirilganligi, O‘zbekistonda esa ijodiy ziyolilar ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha kommunistik mafkuraning tazyiqlariga qaramasdan tarixiy mavzularda ijod qilib, kommunistik mafkura va milliylik o‘rtasida yuzaga kelgan internatsional mafkura asosida sun‘iy shakllantirilgan madaniyat tushunchasidan XX asrning 80-yillarida e‘lon qilingan ochiqlik ruhidagi turkum maqola va asarlari voz kechishga olib kelganligiga oid ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Taqdimot” ko‘rsatuvi senariysini tuzish va tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DUK qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2022-yil 29-noyabrdagi 06-28-1999-son ma‘lumotnomasi). Ushbu natijalarning qo‘llanilishi tinglovchilarda vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg‘ularini yanada yuksaltirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi uchun ham “qayta qurish” siyosati ma‘lum jihatdan uyg‘onish va hurfikrlilikka turtki berib, 1980-yillargacha siyosiy jihatdan o‘rganish mumkin bo‘lmagan ayrim mavzularga (milliy-madaniy qadriyatlar va o‘zlikni anglashga xizmat qiluvchi mavzular) O‘zbekistondan olib ketilgan tarixiy-madaniy yodgorliklarni respublikaga qaytarish, shuningdek, milliy-madaniy merosni tiklash, tarixiy-me‘moriy yodgorliklarni himoya qilish va saqlash, xususan, “Meros” dasturiy rejasi amalga oshirish kabi keng ko‘lamli ishlar yo‘lga qo‘yilishiga asos bo‘lganligiga oid ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Taqdimot” ko‘rsatuvi senariysini tuzish va tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” DUK qoshidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2022-yil 29-noyabrdagi 06-28-1999-son ma‘lumotnomasi). Natijalarining qo‘llanilishi soha vakillarining sovet davrida soha xodimlarining madaniy merosni tiklash uchun qanday kurashlar olib borganligiga oid qarashlarini rivojlantirishga imkonini bergan;

mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolarini hal etishda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarining mutaxassisleri tomonidan xalq xo‘jaligi paxta kompleksining xo‘jalik mexanizmini qayta qurish mohiyati ishlab chiqilib, bozor munosabatlariga o‘tish va iqtisodiy mustaqillikni ta‘minlashga qaratilgan ilg‘or xorijiy tajribalarni respublikamiz sharoitiga moslashtirgan holda qo‘llash borasidagi tavsiyalarni hukumat organlariga taqdim etilishi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni boshqarish konsepsiyasi ishlab chiqilishida muhim o‘rin tutganligiga oid ma‘lumotlardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi faoliyatiga tatbiq etilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil 23-noyabrdagi 02/22-1293-son ma‘lumotnomasi). Olingan natijalar ushbu markaz va jamiyat faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ularni rivojlantirishga, davlat dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda xizmat qilgan;

mustaqillikka erishgandan keyin ijodiy ziyolilar qatlami milliy madaniyatni shakllantirish, undagi asosiy yo‘nalishlar – til, yozuv islohoti, milliy tarix,

o'zlikni anglash kabi masalalarni yoritishga xizmat qiluvchi ilmiy kitob va maqolalar, badiiy asarlarning e'lon qilinishi, ularda ko'tarilgan asosiy masalalar negizida tarixiy shaxslar va ularning yubileylari, tarixiy obidalarning asl funksiyaviy faoliyatining tiklanishi milliy o'zlikni anglash va tarixiy ongni yuksaltirishga qaratilgan tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga oid ma'lumotlardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatiga tatbiq etilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 23-noyabrdagi 02/22-1293-son ma'lumotnomasi). Olingan natijalarning qo'llanilishi yoshlarda vatanparvarlik, vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini yanada yuksaltirishga hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shu jumladan, 4 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida hamda 1 tasi xorijiy nashrlarda, 8 tasi esa respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 181 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston ijodiy ziyolilari faoliyatida ijtimoiy-gumanitar fanlarning kommunistik mafkuraviy muhitda rivojlanib borishi”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston ijtimoiy-gumanitar fanlarining taraqqiyot yo'li, XX asrning 80-yillari o'rtalarida ijodiy ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarga bo'lgan munosabati hamda Sovet davlatining “qayta qurish” siyosati sharoitida ziyolilarda o'zlikni anglash mafkurasining shakllanib borishi tahlil qilingan.

Birinchi bobning *“O'zbekiston ijtimoiy-gumanitar fanlarining taraqqiyot yo'li”* deb nomlangan birinchi paragrafida O'rta Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston hududida ijtimoiy tafakkur fanining rivojlanishi uchun muhim omillar mavjud ekanligi tahlil qilinadi. Xususan, har qanday ijtimoiy taraqqiyot bosqichida, unga monand tafakkurni bunyod etilishida va uni inson ongiga singdirish hamda shu sababli uning kuch qudratini, aql-idrokini buyuk siljishlarga safarbar etishda ilm-fanning, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarining hissasi kattadir.

O‘zbekiston tarixida yuz bergan ko‘p yillik jarayonlarni xolisona tahlil etish vazifasi tom ma‘noda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, xususan, ijtimoiy-gumanitar institutlari tarkib topgandan keyin chuqur izlanishlar olib borgan ziyolilar zimmasiga tushdi va muhim natijalarga erishildi. Bunga akademiyaning marhum a‘zolaridan akademiklar: I. Mo‘minov, O. Toshmuhamedov (Oybek), G.N. Cherdansev, G‘.G‘ulom, Y. G‘ulomov, V. Abdullayev, Y. Rajabiy, R. Nabiyev, V. Yo‘ldoshev, N. Yo‘ldoshev, M. Nurmuhamedov, K.I. Lapkin, H. Sulaymonova, muxbir a‘zolaridan: O.A. Aminov, O. Jamolov, O. Eshonov, P. Nabiyev, Uyg‘un (R. Otaqo‘ziyev), Y. Sultonov, Hamid Olimjon, V.A. Shishkin hamda yirik olimlardan H. Sulaymonov va boshqalar katta hissa qo‘shdilar¹⁰.

Umuman olganda o‘rganilayotgan davrgacha o‘zbek adabiyotida yirik prozaik asarlar juda kam yaratilganligini e‘tirof etish bilan birga, o‘z davrida yozilgan A. Qahhorning “Oltin yulduz” qissasi, Oybekning “Navoiy” romanlarining ahamiyati katta bo‘ldi. Ammo keyinchalik shu va shu kabi asarlar uchun ular o‘tmishni va Navoiy obrazini ideallashtirishda ayblandi¹¹.

Xulosa qilib aytganda, tarix fani obyektiv jarayonni tahlil etishda KPSS Markaziy Qo‘mitasi belgilab bergan siyosiy, ijtimoiy va g‘oyaviy yo‘ldan chetga chiqa olmagan.

Ushbu bobning “*XX asrning 80-yillari o‘rtalarida ijodiy ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarga munosabati*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar sovet ittifoqining “qayta qurish” yillari mobaynida yutuq va qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq holda rivojlanib borish masalalari tahlil qilingan.

Sobiq ittifoq davrida O‘zbekistonda ham mazkur qatlam va uning salohiyatidan oqilona foydalanish juda dolzarb masala hisoblangan. Zero, o‘rganilayotgan davr miqyosida olib ko‘rilsa, mustaqillikka erishish ostonasi va mustaqillik davrida milliy davlatchilikning shakllanishi, iqtisodiyotni oyoqqa turg‘izish, milliy madaniyatni shakllantirish, tarixiy merosni qayta tiklash kabi masalalar o‘z yechimini kutib turgan edi. Ayni shu vaziyat haqida taniqli adib O. Sharafiddinovning “Yo‘lboshchi” maqolasida: “... aql taffakkur yetakchilik qilgan yerda iqtisod ham, moddiy boylik ham, savdo-sotiq ham faravonlik ham taraqqiy etadi” deyiladi. Ushbu fikr tahlilida adibning ziyolilar qatlamiga tayanib davlat boshqarilgan taqdirda barcha sohalarda birdek o‘shiga erishish mumkinligi ifoda etilgan.

Qayta qurish siyosati mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning haq-huquqlari va erkinliklarini kengaytirish borasida ma‘lum ijobiy siljishlarga olib keldi. Ayniqsa, O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi ushbu davrning eng muhim o‘zgarishlaridan biri edi. Uzoq muhokamalar, turli

¹⁰ Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худоёрхана). – Ташкент: Фан, 1973; Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – Б. 69. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи: қадим замонлардан ҳозирги қунгача. – Тошкент: ЎзФАН, 1959; Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – Л., 1940; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX вв. – М., 1958; Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959; Юлдашев М. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. – Ташкент: 1964; Юлдашев М.Ю. К истории крестьян Хивы XIX века. – Ташкент: Фан, 1966; Содиқов А. Хива ва Россия иқтисодий муносабатлари (XIX аср 2 ярми – XIX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 1968; Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства конца XIX и в начале XX вв. – Ленинград: ЛГУ, 1968.

¹¹ Эргашева Ю. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. – Т., «Фан», 1997, – С. 148.

takliflardan so‘ng “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun loyihasi 1989-yil 18-iyunda matbuotda e‘lon qilindi¹².

Umuman olganda ijtimoiy gumanitar fanlar sohasi uchun ham “qayta qurish” siyosati ma‘lum jihatdan uyg‘onish va hurfikirlilikka turtki bo‘ldi.

Ushbu bobning “Sovet davlatining “qayta qurish” siyosati sharoitida ziyolilarda o‘zlikni anglash mafkurasining shakllanib borishi” deb nomlangan uchinchi paragrafida Qayta qurish siyosati jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida jiddiy sifat o‘zgarishlarini amalga oshirmagan, jamiyatning mazmun jihatdan yangilanishini ta‘minlamagan bo‘lsa-da, biroq uning natijasida o‘ziga xos milliy uyg‘onish yuz berganligi tahlil qilingan.

XX asr 80-yillarining boshlariga kelib, sovet davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida inqirozli vaziyatlar kuchayib bordi. 1985-yilning bahorida KPSS Markaziy Komitetining aprel plenumi sovet jamiyatini tubdan qayta qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloh qilish yo‘lini e‘lon qildi. Jamiyatda boshlangan qayta qurish natijasida iqtisodiy munosabatlarni o‘zgartirish, ijtimoiy hayotni yaxshilash, mafkuraviy-siyosiy va ma‘naviy sohalarda bir qator islohotlar o‘tkazishga urinishlar bo‘lishiga qaramay, jamiyatda yuzaga kelgan tanglik holatini yaxshilab bo‘lmadi¹³.

1985–1990-yillar o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi, milliy ongining o‘sishida juda muhim ahamiyatga ega davr bo‘ldi. O‘zbek xalqining qadimiy, ko‘hna madaniyati, urf-odati, an‘analarining boyligi va uning chuqur, mustahkam ildizi mavjudligi Markazdagi g‘oyaviy maddohlarni cho‘chitar edi. Shuning uchun ham ular doim o‘zbek xalqi tarixi, madaniyatini kamsitish yo‘lini tutdilar¹⁴.

Shuningdek, 80-yillar o‘rtalarida O‘zbekistonning xo‘jalik tashkilotlarida tashkil etilib, keyinchalik tergov va sud qilingan markaziy matbuot esa, “o‘zbeklar ishi”, “asr jinoyati” deb cho‘qintirgan “Paxta ishi” va uning atrofidagi tuhmat hamda ig‘vogarliklar sobiq SSSR bilan birga tarix mulkiga aylanib qoldi. “Paxta ishi” deb nomlangan qatag‘onga milliy tus berilib, u “o‘zbeklar ishi”ga aylantirildi va ziyolilar ham ta‘qib ostiga olindi¹⁵.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Kompartiyasi MQ kotibi yoshlar ta‘lim tarbiyasida mafkuraviy jarayonlarning yetarli emasligini ko‘rsatilgan holda, Amir Temur, Bobur Mirzo shaxsiga berilgan ijobiy ta‘riflarga o‘zgartirishlar kiritilmagani va bu o‘tmishni ulug‘lash holatlariga olib kelayotgani, respublika olimlari bu holatlarini oldini olish uchun hech qanday choralar ko‘rmagani yig‘ilishda alohida ta‘kidlanib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Mustaqillik yillarida demokratik jarayonlar va ularda ijodiy ziyolilarning o‘rni**” deb nomlanib, unda mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning taraqqiyot tamoyillari, ilmiy

¹² Юнусова Х. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва маънавий ҳаёт. Тарих фан. док.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 249.

¹³ Ражабов Қ. Ўзбекистондаги янги сиёсий – мафкуравий вазият шаклланишига қайта қуриш сиёсатининг таъсири/ Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиш тарихи: 1980-1990 йиллардаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий омиллар. Илмий тўплам. – Тошкент: Тугон-iqbol, 2019. – Б. 12-18.

¹⁴ Усмонов Қ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Иқтисод -молия, 2006. – 519 б.

¹⁵ Жўраев Н. Тафаккурдаги эврилиш. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 72 б.

muammolar, istiqboldagi vazifalari, o‘qitish zaruriyati hamda bu sohani rivojlantirishda ma’aviy merosining o‘rni va ahamiyatiga bag‘ishlangan.

Ikkinchi bobning *“Mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlar: taraqqiyot tamoyillari, ilmiy muammolar, istiqboldagi vazifalari”* deb nomlangan birinchi paragrafida tadqiqot davrida respublikada ushbu sohaga oid dalillar tahlili keltirilgan.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin, uning tarkibidan mustaqil bo‘lib chiqqan respublikalarning taqdirida ham ijtimoiy-gumanitar fanlar mutlaqo dahldor bo‘lib qoldi. Respublikamizda ham muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar zamirida mavjud imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish uchun gumanitar fanlar oldida turgan dolzarblik kunning eng muhim masalalaridan biriga aylanib bordi. Jumladan, har qanday ijtimoiy taraqqiyot jarayonida unga monand tafakkurning tashkil topishida va uni inson ongiga singdirish va shu sababli uning kuch-qudratini buyuk ishlarga safarbar etishda ilm-fanning, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarning xizmati katta bo‘ldi¹⁶.

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy vaziyat yoki ijtimoiy ehtiyojlar natijasida bu fanlar majmuidan biri boshqasiga nisbatan tezroq rivojlangan yoki rivojlanishi sekinlashgan. Sovet hokimiyati hukmronligi yillari ham bundan mustasno emas. Xususan, O‘zbekiston Davlat Kitob palatasining hisobga oluvchi – qayd etuvchi nashrlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, respublikamizda 1980–1990-yillari oralg‘ida tabiiy fanlar, texnika fanlari, texnika va ijtimoiy fanlar integratsiyasi natijasida shakllangan fanlarga nisbatan ijtimoiy-gumanitar fanlar ancha tez rivojlangan. Bu o‘sha davr uchun tabiiy hol edi. Chunki jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar yillar davomida to‘planib borgan. Ular o‘z vaqtida bartaraf etilmaganligi natijasida muammolar yig‘ilib qolgan edi¹⁷.

Mana shunday og‘ir sharoitlarda ham ko‘p sonli ijtimoiy-gumanitar fanlarining soha vakllari o‘z izlanishlarini tanqidiy ko‘z bilan qarashi lozim edi. Xullas fan yo‘nalishlari qandaydir uslublarga moslashtirilgan edi.

Ikkinchi bobning *“Respublika ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish zaruriyati va ahamiyati”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida O‘zbekiston taraqqiyotida ijtimoiy-gumanitar soha naqadar muhim ekanligi asoslab berilgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston hududida ijtimoiy tafakkur fanining rivojlanishi uchun muhim omillar mavjud bo‘lgan. Jumladan:

eng avvalo, bu zaminda yashab kelgan har xil qavm, kabila va millatlar uchun hayotiy sharoit yaratish va huquqiy maqomlarning zarurligi;

geografik jihatdan G‘arb bilan Sharqni birlashtiruvchi o‘zanda joylashganligi, uning har tomonlama himoya chizig‘iga aylantirishning muhimligi;

xorijiy mamlakatlar uchun ham har tomonlama iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va uni mustahkamlash;

o‘ziga xos iqlim sharoitiga asoslanib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning muhimligi va yuqori shakldagi ijtimoiy munosabatlarning tarkib topishi;

¹⁶ O‘zMA, 130-M-fond, 1-ro‘yxat, 442-yig‘ma jild 14-varaq.

¹⁷ Тангрикулов Ж. “Ривожланган социализм” ва мустақилликнинг дастлабки йилларида Ўзбекистонда нашр ишлари. (1980-1990 ва 1991-1998 йиллар мисолида) // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2019. – № 12. – Б. 65-66.

bu yerda istiqomat qilgan xalqlarning diniy e'tiqodlarining kuchliligi va ma'naviyati chanqoqligi, islom dinnning yetakchilik roli;

xalqning ilm-fanga muhabbatining beqiyosligi muhim ahamiyat kasb etgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishiga shu nuqtai nazardan yondashilsa, uning ijtimoiy taraqqiyot darajasiga nihoyatda ulug' ulush qo'shganligini va o'chmas iz qoldirganligiga guvoh bo'lamiz¹⁸.

O'zbekiston mustaqillik ostonasida turar ekan, respublika rahbariyati dastlabki vazifalardan biri ilm-fanni, ta'lim tizimini isloh qilish, modernizatsiya qilish lozimligini chuqur anglar edi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov 1988-yil 20-noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasida bo'lgan uchrashuvda shunday degan edi: "Respublika hayotining barcha sohalarida ilm-fan mavqeini prinsip e'tibori bilan yangi sifat darajasiga ko'tarish respublika Fanlar Akademiyasining asosiy vazifasidir, deb o'ylaymiz. Qayerdagi ma'naviyat, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni yetarlicha tushunilmasa, uni rivojlantirishda asosiy o'rin tutuvchi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga jiddiy e'tibor berilmasa, o'sha yerda muammolar kamayish o'rniga ko'payishi mumkin.

Ushbu bobning "*Ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishda ma'naviy merosining o'rni va ahamiyati*" deb nomlangan uchinchi paragrafda Sharq va G'arb olimlarining ijtimoiy-gumanitar fanlari sohasiga qo'shgan hissalarini tahlili keltirilgan.

Bugungi kunda ijtimoiy gumanitar fanlarni rivojlantirishda Sharq allomalarining ma'naviy meros bo'lib kelgan asarlarini ilmiy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda Prezident Sh.M. Mirziyoyev "Fundamental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish masalasi biroz e'tiborimizdan chetda qolgani bugun yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki fundamental tadqiqotlar jadal rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha boshqa davlatlardan sezilarli ravishda ilgari borayotganini ko'rib turibmiz. Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo'nalishida qo'lga kiritilgani tasodifiy emas. Shuning uchun endilikda fundamental fanlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohani iqtidorli yosh kadrlar bilan ta'minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda"¹⁹ deb ta'kidlaydi.

Ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida falsafiy ta'limni rivojlantirishda Sharq renessansi davri allomalarining ilmiy-falsafiy merosini o'rganish uchun xorij, xususan, G'arb olimlari tomonidan bu yo'nalishda erishilgan yutuqlar, boy tajriba bilan tanishmasdan turib, ma'lum bir natijaga erishib bo'lmaydi²⁰. Hozirgi davr sivilizatsiyasi insoniyat tarixiy taraqqiyoti darajasini va islom dinida ilmiy bilimlar rivojini aniqlash mezonlarini qayta baholashni taqozo qilib, shu talabga asosan, Tomas P. Flint, Maykl K. Rey, Ali Akbar Vilayati, Ardakani Rizo Dovari, Berns, Birindjkar Rida, Vundt V.,

¹⁸ Iskandarov I. Ўзбекистон ижтимоий гуманитар фанларининг тараққиёт йўли / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент: Фан, 1993. – №8. – Б. 3.

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 171.

²⁰ Мухтаров У. Янги Ўзбекистон тараққиётида шарқ ренессанси даври алломаларининг илмий-фалсафий меросининг ўрни / "Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari". VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. – Б. 185.

Oldenberg G., Gold, Limen Oliver, A. Korben, Seyyid Xuseyn Nasr, M. Mutaxxari, A.R. Ubudiyat, Chittik Uilyam va boshqa shu kabi olimlarning asarlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan²¹.

Xullas, O'zbekistonlik olimlarning tadqiqot ishlarida asl manbalar asosida Forobiy, Ibn Rushd, Ibn Bajja, Ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy singari sharq mutaffakkirlarining falsafiy qarashlari ancha batafsil o'rganilgan. A.L. Kaziberdiyev, S. Serebryakov, Azkul Karim, Alber Nasriy, M.N. Boltayev, A. Hasanov, A. Saydahmedova kabi sharqshunoslar ushbu faylasuflarning risolalarini tarjima etish, har bir tushunchaga alohida sharh berish ustida jiddiy ilmiy ishlar olib borib, ular asarlarining tarjima lug'atini ham tuzganlar.

“Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarga munosabat va e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi” deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirishning ilmiy asoslari, ijtimoiy-gumanitar fanlari sohalarida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari hamda Uchinchi renessans poydevori shakllanayotgan Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish ehtiyojiga e'tibor qaratilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafi bo'lgan *“O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirishning ilmiy asoslari”*da O'zbekiston tarixidagi muammolar va ularning yechimi hamda istiqbolli rejalar asosida samarali ish olib borilganligi tahlil qilingan.

